

PR TEXNOLOGIYALARINING IJTIMOIIY TA'SIR MEXANIZMLARI

Akbayeva Maxfuza Masabirovna

O'zJOKU "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar"
yo'nalishi 2-bosqich magistranti

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 27.12.2025

Revised: 28.12.2025

Accepted: 29.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

PR texnologiyalari, ijtimoiy ta'sir, jamoatchilik fikri, ijtimoiy ong, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar, ishonch, kommunikatsiya

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir mexanizmlari zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda PR texnologiyalarining jamoatchilik fikri, ijtimoiy ong, ishonch darajasi hamda hissiy munosabatlarga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilgan. Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda amalga oshirilayotgan PR faoliyatining samaradorligi baholanib, so'rovnoma natijalari asosida empirik tahlil olib borilgan. Tadqiqot natijalari PR texnologiyalarining ijtimoiy ongning shakllantirishdagi o'rni va ularning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kirish

Bugungi globallashtirish va axborotlashuv sharoitida jamoatchilik fikri va ijtimoiy ongning shakllantirishda PR texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tashkilotlar, davlat muassasalari va biznes subyektlari o'z faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ishonch va obro'ni mustahkamlashda PR texnologiyalaridan faol foydalanmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan PR faoliyati ijtimoiy ta'sir mexanizmlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Zamonaviy PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir vositalari va shakllari.

=====

"PR texnologiyalari — ijtimoiy ongni boshqarish, fikrni shakllantirish, axborot oqimini to'g'ri yo'naltirish va maqsadli auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish vositasidir."⁴⁹

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi va kommunikatsiya kanallarining diversifikatsiyalashuvi PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytirdi. PR texnologiyalari tashkilot va jamoatchilik o'rtasida barqaror muloqotni yo'lga qo'yish, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish hamda ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan maxsus kommunikativ vositalar majmuasidir.

"PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir vositalari, avvalo, axborotiy kommunikatsiya shakllari orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, press-relizlar, rasmiy bayonotlar, intervyular va brifinglar orqali jamoatchilikka maqsadli axborot yetkaziladi. Ushbu vositalar jamiyatda tashkilot faoliyatiga nisbatan ma'lum bir tasavvur va baholash mezonlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, PR texnologiyalarining muhim ijtimoiy ta'sir shakllaridan biri — ijtimoiy loyihalar va tadbirlardir. Ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslar orqali tashkilot o'zini jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi subyekt sifatida namoyon etadi. Bu jarayonda ijtimoiy mas'uliyat, hamkorlik va ishonch kabi qadriyatlar mustahkamlanadi."⁵⁰

Zamonaviy PR amaliyotida imij va reputatsiyani boshqarish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Vizual identitet, korporativ madaniyat, jamoatchilik bilan ochiq muloqot kabi omillar orqali tashkilotning ijtimoiy qiyofasi shakllantiriladi. Ushbu texnologiyalar jamoatchilik ongida barqaror ijobiy obrazni yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, uzoq muddatli ijtimoiy ta'sirga ega.

Bundan tashqari, raqamli PR texnologiyalari ijtimoiy ta'sir vositalarining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va onlayn platformalar orqali amalga oshirilayotgan PR faoliyati interaktivlik, tezkorlik va keng qamrov bilan ajralib turadi. Bu esa jamoatchilik fikrining shakllanish jarayonini yanada dinamik va ko'p tomonlama tusga keltiradi.

Zamonaviy PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir vositalari va shakllari jamiyat bilan samarali kommunikatsiyani ta'minlash, ijtimoiy ong va munosabatlarni boshqarishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ular tashkilot va jamoatchilik o'rtasida o'zaro ishonch, ochiqlik va barqaror ijtimoiy aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

2.Ommaviy axborot vositalari hamda raqamli platformalarda PR ta'sir mexanizmlarining amal qilishi

Ortiqova R.

Yoshlar ekomadaniyatini shakllantirishda PR texnologiyalarining kommunikativ imkoniyatlari: samaradorlik va innovatsion yondashuvlar / R. Ortiqova // "Til, adabiyot va jurnalistika ta'limi" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. — 2025 yil 14-oktabr. — B. 587

⁵⁰ Ramanova G. I. The Evolution and History of PR Technologies: A Comprehensive Analysis // Texas Journal of Engineering and Technology. — 2023. — Vol. 21. — URL: <https://zienjournals.com>

"PR faoliyati nazariy jihatdan uch asosiy yo'nalishda tahlil qilinadi:

- kommunikativ yondashuv – axborot oqimini to'g'ri yo'naltirish va maqsadli auditoriya bilan ikki tomonlama muloqot o'rnatish;

- imidj va reputatsiya boshqaruvi – shaxs, tashkilot yoki g'oyaning ijobiy qiyofasini yaratish;

- axborot strategiyasi – jamoatchilik ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan media- kontent va xabarlarni ishlab chiqish.

Hozirgi raqamli davrda PRning asosiy kanallari sifatida ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, TikTok, YouTube), onlayn platformalar va mobil ilovalar muhim o'rin tutadi." ⁵¹

Zamonaviy axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sirini amalga oshiruvchi asosiy kommunikatsion makon sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur vositalar orqali tarqatiladigan axborot jamoatchilik fikrining shakllanishi, ijtimoiy ong va munosabatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalarida PR ta'sir mexanizmlari, avvalo, axborotni tanlash, tuzish va taqdim etish jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Yangiliklar, tahliliy materiallar, intervyu va maxsus ko'rsatuvlar orqali tashkilot faoliyati muayyan kontekstda yoritiladi. Ushbu jarayonda axborotning dolzarbligi, ishonchliligi va ijtimoiy ahamiyati jamoatchilik idrokiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli platformalarda esa PR ta'sir mexanizmlari interaktivlik va tezkorlik tamoyillariga asoslanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va onlayn axborot resurslari orqali jamoatchilik bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa PR faoliyatini biryoqlama axborot uzatishdan ko'p tomonlama kommunikatsiyaga aylantiradi.

Shuningdek, raqamli muhitda kontent strategiyasi PR ta'sirining muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Vizual materiallar, video va matnli kontent orqali jamoatchilikda hissiy munosabat shakllantiriladi. Algoritmik tarqatish tizimlari esa PR axborotining auditoriyaga yetib borish darajasini belgilaydi.

"Ommaviy axborot vositalari va PR texnologiyalari davlat imijini shakllantirishda o'zaro uzviy bog'liq jarayondir. Axborot siyosatini samarali yuritish, jamoatchilik bilan ochiq muloqot o'rnatish va zamonaviy media vositalaridan oqilona foydalanish davlatning ijobiy obrazini yaratadi. Shu bois, davlat idoralari uchun professional PR strategiyalarni ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan tizimli foydalanish zamon talabi hisoblanadi." ⁵²

⁵¹ Ortiqova R. Yoshlar ekomadaniyatini shakllantirishda PR texnologiyalarining kommunikativ imkoniyatlari: samaradorlik va innovatsion yondashuvlar / R. Ortiqova // "Til, adabiyot va jurnalistika ta'limi" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. — 2025 yil 14-oktabr. — B. 588.

⁵² Akbarova Sadoqat. Ommaviy axborot vositalarida davlat imijini shakllantirishda PR texnologiyalarining o'rni // O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy jurnali. — 2025. — Vol. 2, № 1. — October.

=====

Ommaviy axborot vositalari hamda raqamli platformalarda PR ta'sir mexanizmlarining samarali amal qilishi jamoatchilik bilan ochiq va izchil muloqotni ta'minlab, ijtimoiy ong va munosabatlar tizimiga barqaror ta'sir ko'rsatadi.

3. PR texnologiyalarining ijtimoiy samaradorligini baholash: mezonlar, indikatorlar va empirik tahlil

PR texnologiyalari — bu jamiyatda ijobiy imijni shakllantirish, muayyan g'oya yoki qadriyatni ommalashtirish, shuningdek, auditoriya bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiluvchi vositalar majmuidir."⁵³

PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'siri nafaqat axborot tarqatish jarayoni, balki uning jamiyat ongiga ko'rsatgan real natijalari orqali namoyon bo'ladi. Shu bois PR faoliyatining ijtimoiy samaradorligini baholash ilmiy-amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi. Samaradorlikni aniqlash PR texnologiyalarining qanchalik maqsadga muvofiq va natijador ekanini ko'rsatib beradi.


PR texnologiyalarining ijtimoiy samaradorligini baholashda, avvalo, jamoatchilik fikri va ijtimoiy munosabatlar dinamikasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Tashkilot faoliyatiga nisbatan ijobiy yoki salbiy qarashlarning o'zgarishi, ishonch darajasining oshishi yoki pasayishi PR ta'sirining muhim ko'rsatkichidir. Ushbu jarayon so'rovnomalar, intervyular va ijtimoiy tadqiqotlar orqali aniqlanadi.

Ikkinchi muhim mezon — imidj va reputatsiya holatidir. PR texnologiyalarining samaradorligi tashkilotning jamoatchilik ongidagi obro'-e'tibori bilan bevosita bog'liq. Ijobiy imidjning barqaror shakllanishi, ommaviy axborot vositalarida tashkilot haqidagi materiallarning ohangi (neytral, ijobiy yoki salbiy) PR faoliyatining natijasini ifodalaydi.

Shuningdek, auditoriya faolligi va ishtirok darajasi PR samaradorligini baholashda muhim indikator hisoblanadi. Tadbirlar, ijtimoiy loyihalar va raqamli platformalarda jamoatchilikning faol ishtiroki PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir kuchini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar, izohlar va muhokamalar ushbu faollikni aniqlashda qo'llaniladi.

Kichik ilmiy tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomaning ilmiy tahlili:

⁵³ Ortiqova R. Yoshlar ekomadaniyatini shakllantirishda PR texnologiyalarining kommunikativ imkoniyatlari: samaradorlik va innovatsion yondashuvlar / R. Ortiqova // "Til, adabiyot va jurnalistika ta'limi" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. — 2025 yil 14-oktabr. — B. 587



O'tkazilgan so'rovnoma natijalari PR texnologiyalarining zamonaviy axborot muhitidagi ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Jumladan, respondentlarning 87 foizi "Faol foydalanadigan axborot manbangiz" savoliga ijtimoiy tarmoqlar deb javob bergan. Mazkur ko'rsatkich raqamli platformalar bugungi kunda jamoatchilik fikrini shakllantirishda asosiy kommunikativ makon sifatida qaralayotganini ko'rsatadi. Bu holat PR faoliyatining markazi an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan tobora ko'proq raqamli muhitga ko'chayotganini anglatadi.

"So'rovnoma ishtirokchilaridan PR faoliyati tashkilot yoki shaxsga nisbatan ishonchni oshiradimi?" degan savolga 42 foizi "ha", 50 foizi esa "ba'zan" javobini belgilagan. Ushbu natijalar PR texnologiyalarining jamoatchilik ongiga to'g'ridan-to'g'ri va barqaror ta'siri mavjud ekanini, biroq mazkur ta'sir ko'p jihatdan axborot mazmuni, ishonchliligi va yetkazish shakliga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Respondentlarning aksariyati PR axborotini shartsiz qabul qilmasligi, balki uni tanqidiy baholashi zamonaviy auditoriyaning kommunikativ savodxonligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

"So'rovnoma doirasida PR axboroti sizda ko'proq qaysi hissiy holatni uyg'otadi?" degan savolga respondentlarning 52 foizi "ishonch" javobini bildirgan. Bu ko'rsatkich PR texnologiyalarining hissiy-psixologik ta'sir mexanizmlari samarali ishlayotganini tasdiqlaydi. Xususan, maqsadli auditoriyaga moslashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega va ochiq kommunikatsiyaga asoslangan PR kontent jamoatchilikda ijobiy munosabat va ishonchni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur so'rovnomaning asosiy maqsadi PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini empirik jihatdan aniqlash, ularning jamoatchilik fikri, ishonch darajasi hamda hissiy munosabatlarga ko'rsatadigan real ta'sirini baholashdan iboratdir. So'rovnoma PR faoliyatining nazariy jihatlarini amaliy ma'lumotlar bilan asoslashga xizmat qiladi.

So'rovnoma ilmiy maqola tadqiqotida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, u PR texnologiyalarining ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalardagi samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Respondentlarning axborot manbalari, PR axborotiga bo'lgan munosabati va ishonch darajasini o'rganish orqali PR faoliyatining ijtimoiy ongga ta'siri aniq statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi.

Shuningdek, so'rovnoma PR texnologiyalarining zamonaviy axborot makonidagi o'rnini aniqlash, raqamli platformalarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini baholash hamda kommunikatsiya strategiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi. Olingan natijalar PR faoliyatini rejalashtirish va baholash jarayonida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa

Ilmiy maqolada PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir mexanizmlari zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari PR texnologiyalari bugungi kunda jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy ong va munosabatlar tizimini boshqarishda muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatdi.

PR texnologiyalarining ijtimoiy samaradorligini baholash mezonlari va indikatorlari tahlili jarayonida jamoatchilik fikri, ishonch darajasi, imij va reputatsiya holati hamda auditoriya faolligi asosiy ko'rsatkichlar sifatida belgilandi. O'tkazilgan empirik tadqiqot — so'rovnoma natijalari respondentlarning aksariyati axborotni ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilishini, PR faoliyati jamoatchilik ongida ishonch va ijobiy hissiy munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynayotganini tasdiqladi. Shu bilan birga, auditoriyaning tanqidiy fikrlashi PR axborotining mazmuni va ishonchliligiga bo'lgan talab yuqori ekanini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'siri axborot tarqatish bilan cheklanmasdan, jamiyat ongiga, ijtimoiy munosabatlar tizimiga hamda jamoatchilik ishonchini shakllantirish jarayoniga barqaror va tizimli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari PR faoliyatini samarali tashkil etish, kommunikatsiya strategiyalarini takomillashtirish hamda ijtimoiy ongga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Takliflar:

PR faoliyatini rejalashtirishda raqamli platformalar ustuvorligini kuchaytirish taklif etiladi;

Tadqiqot natijalariga ko'ra, jamoatchilik axborotni asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilayotgani sababli PR texnologiyalarini ishlab chiqishda raqamli kommunikatsiya kanallariga moslashtirilgan, interaktiv va maqsadli kontent strategiyalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir;

Jamoatchilik fikri, ishonch darajasi va auditoriya munosabatlaridagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida so'rovnomalar, monitoring va tahliliy tadqiqotlarni tizimli ravishda amalga oshirish PR faoliyatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

PR axborotining ishonchliligi va ijtimoiy ahamiyatini oshirish tavsiya etiladi. Jamoatchilik tomonidan PR axborotining tanqidiy baholanayotganini inobatga olib,

=====

axborot mazmunini ochiq, haqqoniy va ijtimoiy foydali tamoyillar asosida ishlab chiqish auditoriya ishonchini mustahkamlashga yordam beradi;

Auditoriya bilan ikki tomonlama muloqotni kuchaytirish tavsiya etiladi;

Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda feedback mexanizmlarini faol qo'llash, izoh va munosabatlarni tahlil qilish orqali PR strategiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish PR texnologiyalarining ijtimoiy ta'sir samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Akbarova Sadoqat. Ommaviy axborot vositalarida davlat imijini shakllantirishda PR texnologiyalarining o'rni // O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy jurnali. — 2025. — Vol. 2, № 1. — October.

2. Ortiqova R. Yoshlar ekomadaniyatini shakllantirishda PR texnologiyalarining kommunikativ imkoniyatlari: samaradorlik va innovatsion yondashuvlar / R. Ortiqova // "Til, adabiyot va jurnalistika ta'limi" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. — 2025 yil 14-oktabr. — B. 587.

3. Ramanova G. I. The Evolution and History of PR Technologies: A Comprehensive Analysis // Texas Journal of Engineering and Technology. — 2023. — Vol. 21. — URL: <https://zienjournals.com>